

“University of economics and pedagogy” NOTM

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri

PhD), dotsent I.M.Sirojiddinova taqrizi ostida

UDK: 376.112.4

**“TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSİYALASH JARAYONIDA BO’LAJAK  
O’QITUVCHILARNI SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN VA REFLEKSIYA ASOSIDAGI  
TEXNOLOGIYALAR BILAN TAYYORLASHNING AHAMIYATI”**

*Xusenova Sadaqat Botirovna*

*“University of economics and pedagogy” NOTM*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi assistenti*

*sadoqatkarimova170@gmail.com*

*ORCID ID: 0009-0003-3532-3205*

**Annotatsiya:** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga, Sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashda “refleksiya” va “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” texnologiyalaridan foydalanishning nazariy tahlili va amaliy natijalari bayon etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlari, xususan, sind rahbari faoliyatiga tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanilib, ular o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan ishslash ko‘nikmalarini takomillashtirishga va tarbiyaviy ishlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan. Ushbu maqolada tanqidiy tahlilva amaliy tadqiqot usullari asosiy metod sifatida tanlangan bo‘lib, “Refleksiya” va “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” texnologiyalarining samaradorligini o‘rganish uchun nazariy tahlil, amaliy kuzatish, suhbat, so‘rovnama va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va refleksiya bo‘lajak o‘qituvchilarning sind rahbari sifatidagi mas’uliyatni yanada chuqur anglashlariga ko‘mak berdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni sind rahbari faoliyatiga tayyorlashda qo‘llaniladigan texnologiyalar ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish, o‘quvchilar jamoasi bilan ishslash ko‘nikmalarini oshirish va zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida samarali rahbarlik qilishga tayyorlashga yo‘naltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak o‘qituvchilar, sind rahbari faoliyati, refleksiya texnologiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi.

**“ВАЖНОСТЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ  
ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ И РЕФЛЕКСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В  
ПРОЦЕССЕ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ”**

**Аннотация:** В статье представлен теоретический анализ и практические результаты использования технологий “рефлексия” и “личностно-ориентированное обучение” при подготовке будущих педагогов к профессиональной деятельности, деятельности классного руководителя. При подготовке будущих педагогов к внеурочной воспитательной работе, в частности к деятельности классного руководителя, применяются современные педагогические технологии, направленные на совершенствование навыков работы педагогов с учащимися и организацию воспитательной работы на основе современных требований. В данной статье в качестве основного метода выбраны критический анализ и методы прикладных исследований, а для изучения эффективности технологий “рефлексии” и “личностно-ориентированного

обучения” использованы методы теоретического анализа, практического наблюдения, интервью, анкетирования и статистического анализа. Результаты исследования показали, что личностно-ориентированные образовательные технологии и рефлексия способствовали более глубокому пониманию будущими учителями ответственности классного руководителя. Технологии, применяемые при подготовке будущих педагогов к деятельности классного руководителя, направлены на развитие их педагогического мастерства, совершенствование навыков работы с коллективом учащихся, подготовку к эффективному руководству в современном учебно-воспитательном процессе.

**Ключевые слова:** будущие учителя, деятельность классного руководителя, технология рефлексии, технология личностно-ориентированного обучения.

### **“THE IMPORTANCE OF TRAINING FUTURE TEACHERS WITH THE HELP OF PERSONALITY-ORIENTED AND REFLECTIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF MODERNIZING THE EDUCATION SYSTEM”**

**Abstract:** The article presents a theoretical analysis and practical results of using the technologies “reflection” and “personality-oriented learning” in preparing future teachers for professional activities, the activities of a classroom teacher. When preparing future teachers for extracurricular educational work, in particular for the activities of the class teacher, modern pedagogical technologies are used aimed at improving the skills of teachers working with students and organizing educational work based on modern requirements. In this article, critical analysis and applied research methods are chosen as the main method, and methods of theoretical analysis, practical observation, interviews, questionnaires and statistical analysis are used to study the effectiveness of “reflection” and “personality-oriented learning” technologies. The results of the study showed that personality-oriented educational technologies and reflection contributed to a deeper understanding of the responsibility of the classroom teacher by future teachers. The technologies used in the preparation of future teachers for the activities of a class teacher are aimed at developing their pedagogical skills, improving the skills of working with a team of students, preparing for effective leadership in the modern educational process.

**Key words:** future teachers, the activities of the class teacher, the technology of reflection, the technology of personality-oriented learning.

#### **KIRISH**

Bugungi kunda “hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini ham modernizatsiyalash eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minalash yoshlarimizni bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ni va “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ni amalga oshirish uzlusiz ta’lim tizimining tuzilmasi hamda mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajriba asosida takomillashtirishni ko‘zda tutadi.”[1] Buning uchun, avvalo, barcha ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg’or, ilmiy- uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot va amaliyot bilan ta’minalash lozim. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Barchamiz bugun chuqur anglab oldik faqatgina zamonaviy asosda ta’lim-tarbiya olgan, jahonning ilg’or mamlakatlariidagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoni va

ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko’tarishga qodir bo‘ladi”[6]

“O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra ta’lim jarayonida turli zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘lajak sinf rahbarini “o‘quvchilarda ma’naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish”[7]ga doir bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiya asosidagi texnologiyalar bilan tayyorlashning ahamiyatini to‘liq ochib berish maqsadida ta’lim jarayonida refleksiya texnologiyasi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni ko‘rib chiqsak.

“Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarga har bir o‘quvchining individual xususiyatlarni e’tiborga olib ishlashni o‘rgatadi. O‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatları va ehtiyojlariga mos tarzda tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish esa sinf rahbari faoliyatining muhim qismidir. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar individual yondashuv asosida o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantiradilar.

“Bugungi kunda ta’lim tizimi oldidagi eng muhim vazifalardan biri – bolalarga individual yondashish asosida tarbiya va ta’lim berishdir. O‘zbek olimlari, jumladan, S.Turg‘unov va R.Jo‘rayevlarning tadqiqotlariga ko‘ra, “individual yondashuv bolaning rivojlanish bosqichlarini chuqur o‘rganish orqali ta’limni yanada samarali qilish imkonini beradi”[2] “Buning uchun o‘qituvchilarni “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” texnologiyalari va refleksiya orqali samarali pedagogik faoliyatga tayyorlash talab etiladi. D.Sherovning tadqiqotlari esa “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchilarning ishtirokchanligini kuchaytirishini ko‘rsatmoqda”[7] “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” bolalarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos pedagogik yondashuv tanlash zarurligini ta’kidlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali pedagogik faoliyatga tayyorlashda “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” texnologiyalari va refleksiya usullaridan foydalanish zarurdir. Sinf rahbari bo‘lish esa faqat o‘quv jarayonini boshqarishni emas, balki o‘quvchilarning rivojlanishiga xizmat qiluvchi shaxsiy yondashuvni qo‘llashni ham talab etadi. Bundan tashqari, sinf rahbari faoliyatida refleksiya jarayoni o‘quvchilar bilan ishlashdagi muammolarni aniqlash va ularga yechim topishda muhim ahamiyat kasbetadi

“Refleksiya” texnologiyasi o‘qituvchilarga o‘z faoliyatlarini tahlil qilishni va o‘quvchilarning tarbiyaviy tadbirlardan so‘ng o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘rgatadi.

Qator mualliflar “Refleksiya texnologiyalari o‘qituvchilarga shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, deb hisoblagan (A.A\_Bizayeva, V.V.Vetrova, E.N.Pexota, I.A.Stetsenko, LG.Tatur, AV.Xristevava boshqalar)”[4]

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotimiz davomida tanqidiy tahlil va amaliy tadqiqot metodlari asosiy metod sifatida tanlandi. “Refleksiya” va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” texnologiyalarining samaradorligini o‘rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

**nazariy tahlil:** Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va refleksiya nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi.. Mazkur jarayon ta’lim va

pedagogik adabiyotlar hamda ilg’or pedagogik tajribalardan foydalanib amalgaoshirildi;

**amaliy kuzatish;** Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning sinf rahbari faoliyatida ushbu texnologiyalardan foydalanish qobiliyati kuzatildi va tahlil qilindi.

**suhabat va so‘rovnomal;** Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomal o‘tkazilib, shaxsga

yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilindi.

**statistik tahlil;** Yig'ilgan ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, refleksiya va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining samaradorligi baholandi.

Tadqiqot obekti sifatida Andijon davlat pedagogika institutining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari-bo'lajak o'qituvchilari tanlab olindi. Tadqiqot uch oy davomida amalga oshirilib, har hafta amalga oshirilgan faoliyatlar va talabalar tomonidan qayd etilgan natijalar tahlil qilindi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

O'tkazilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini va refleksiya bo'lajak o'qituvchilarga sinf rahbari sifatidagi mas'uliyatlarini chuqurroq anglashda yordam berdi. Tadqiqotimiz orqali quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Refleksiya samaradorligi: kuzatishlarimiz natijasida, refleksiya orqali o'z-o'zini tahlil qilish o'quvchilar bilan ishlashda muhim omil ekani aniqlandi. Reflektiv yondashuv o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatlarini qayta ko'rib chiqishga yordam berdi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ta'siri: ushbu texnologiyalarini qo'llash natijasida bo'lajak o'qituvchilar bolalar bilan individual yondashuv asosida ishslash ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

**talabalarning ishtirokchiligi:** so'rovnomalar natijasida bo'lajak o'qituvchilar refleksiya va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda o'zlarini ishonchli his qilishlari aniqlandi.

Refleksiya asosida amalga oshirilgan kuzatish va tahlillar natijasi, shuningdek, ushbu jarayonlarda bolalar bilan ishlashning yangi yo'nalishlarini ochishga yordamberdi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi qatnashuvchanligini oshirdi va bo'lajak o'qituvchilarning ularning ichki dunyosiga kirib borishlariga imkon berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, refleksiya va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini sinf rahbari faoliyatiga tayyorlanishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatlarini mustaqil ravishdatahlil qilish va shaxsiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijalar, shuningdek, bolalar bilan ishlashda individual yondashuvning afzalliklarini ham namoyon qildi. Yondashuvning afzalliklaridan biri shundaki, bo'lajak o'qituvchilar bolalarni yanada yaxshiroq anglay boshladilar va ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdilar.

Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali o'zlarining shaxsiy imkoniyatlarini ko'rib chiqishdi. Ular o'quvchilar bilan ishlashda ijobiy natijalarga erishdilar va ularda mas'uliyatni chuqur his qilish, qiyin vaziyatlarni hal qilish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi ko'nikmalar rivojlandi. Bu esa, sinf rahbari sifatida kelgusidagi faoliyatlarida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida bo'lajak o'qituvchilarini "refleksiya" va "shaxsga yo'naltirilagan ta'lim" texnologiyalarini sinfrahbari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar qilindi:

-refleksiya texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatlarini tanqidiy tahlil qilish va sinf rahbari sifatida mas'uliyatni his qilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini o'quvchilar bilan individual yondashuvda ishslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

-sinf rahbari sifatida refleksiya va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga ko‘maklashadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / “Xalq so‘zi” 2017-yil 1-iyul.
2. Jo‘rayev. R, Turg'unov.S “Ta’lim menejmenti” Toshkent. Voris, 2006
3. Norxujayeva.Z. “O‘qituvchilarning kasbiy refleksiyasi o‘quvchilarning aqliy salohiyatini rivojlantiruvchi omili sifatida” Academic research in educational sciences Volume 5 | Issue 1 | 2024
4. Sherov.D “Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarining ilmiy-nazariy asosi” academic research in educational sciences Volume 2 | issue 4 | 2021
5. Xusenova.S.B. “Bo’lajak o‘qituvchilarni pedagogik amaliyat jarayonida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash” “Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materillari. 3- qism. Ijtimoiy-gumanitar fanlar Farg’ona, 2022-yil 20-yanvar
6. Xusenova.S.B.“Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida tarbiya fani vositasida ma’naviy tarbiya kompitensiyasini shakllantirish”. World scientific research journal, 16(2), 121-123. (2023).